

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinbosarlari

Qozoqboy Yo'ldoshev

Roza Niyozmetova

Mas'ul kotib

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Sahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Homidjon Homidiy, Shohida Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Nusratillo Jumaxo'ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo'rayeva, Shahnoza Rahmonova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Husnigul Jurayeva, Sohiba Umarova, Shohrux Abduraimov, Munira Shodmonova, Mahfuza To'ychiyeva, Matluba Jabborova, Abdug'ofir Rahmonov, Iroda Ishonxanova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma'lumot

“Metodika” seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. “Metodika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O'zbekiston: til va madaniyat. “Metodika” seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Boqijon To'xliyev

Alisher Navoiy pedagogik hamda metodik qarashlarining yana bir qirrasini haqida 4

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar 16

Gulshan Asilova

Til ta'limida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish 32

Gulnoza Ahmedova

O'zbek tili darslarida nutqiy muloqot madaniyatini oshirishdagi faollik tamoyili 42

Saodat Kambarova

Adabiyotni so'z san'ati sifatida san'atning boshqa turlari bilan qiyoslab o'rganish usullari 52

Maxmuda Yuldasheva

Evristik yondashuvning ustivor jihatlarini 52

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova

O'quvchilarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish 63

Munira Shodmonova

Ona tili va adabiyot o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari 63

Klaraxon Mavlonova

8-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish mazmuni 73

Shohruh Abdiraimov

Matnni o'qib tushunish ko'nikmasini baholash mezonlarini ishlab chiqish asoslari 89

Sanobar Kuldasheva

Ona tili ta'limida multimedial usullardan foydalanish metodikasi 106

Nilufar Berdiyeva

Ona tilini o'rganish bo'yicha qilingan tadqiqotlarni til ta'limida qo'llash 122

Namoz Rasulov

O‘zbek tilida so‘roq ifodalovchi lingvistik birliklar

Feruza Sharopova

O‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga oid tajribalar tahlili

ADABIYOT O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Gulnoza Jurayeva

O‘zbek bolalar she‘riyati – ma‘rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida 139

Maxfuza Tuychiyeva

Badiiy tafakkur va adabiy talqin mutanosibligi 150

Iroda Ishonxanova

“Scaffolding” usuli – o‘quvchilarning mustaqil faoliyati asoslaridan biri sifatida

Mahliyo Elboyeva

O‘zbek bolalar adabiyotini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar va metodlarning o‘ziga xos xususiyatlari 182

Jamoliddin Nurmuhammadov

O‘quvchida tahliliy va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun “Book review” strategiyasini tuzish metodikasi

Sharofat Abdurahmonova

Aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi” ertagini kulturologik yondashuv asosida o‘qitish tamoyillari

Moxidilxon Abdullayeva

5-6-sinf adabiyot darslari uchun rasmi lug‘atlar yaratish muammolari

“Scaffolding” usuli – o‘quvchilarning mustaqil faoliyati asoslaridan biri sifatida

Iroda Ishonxanova³³

Annotatsiya

Ta'lim tizimi davr talabi bilan doimo o'zgarib, rivojlanib, yangilanib boradi. Zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llash orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ortishi tajribalarda isbotlanmoqda. Ushbu maqolada samarali zamonaviy usullardan biri – “Scaffolding”³⁴ metodi haqida ma'lumot beriladi. “Scaffolding” metodining o'ziga xos xususiyatlari, strategiyalari, prinsiplari, mezonlari, afzalliklari sanab o'tiladi, munosabat bildiriladi hamda xulosalanadi. Har bir mulohaza yuzasidan bildirilgan fikrlar asoslangan. Bundan tashqari, ushbu metodni qo'llagan holda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari – Alisher Navoiyning g'azal hamda ruboiylarini o'rganish masalasiga ham to'xtab o'tilgan. Bu mavzularning “Scaffolding” metodi asosida o'zlashtirish yo'llari misol tariqasida keltirilgan. O'quvchilarning mavzular hamda yangi ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishlariga bevosita yordam beruvchi bu usul o'quv mashg'ulotlarining qiziqarli va unumli o'tkazilishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *“Scaffolding”, strategiya, prinsip, mezon, zamonaviy texnologiyalar, so'zlar izohi, grafik organayzerlar.*

Kirish

Jamiyatda zamonaviy texnologiyalar o'zining mustahkam o'rnini egallayotgan vaqtda ta'lim tizimi ham yangicha metodlarni qo'llash jarayonini o'zining ajralmas bo'g'ini sifatida tan olinmoqda. Shu sababli jahon miqyosida qo'llanayotgan usullar o'zbek tili va adabiyotini o'qitish sohasiga ham kirib kelmoqda. “Keys-stadi”, “Muammoli ta'lim”, “Rolli o'yinlar”, “Modulli ta'lim”, “Loyihalash metodi” va boshqalar shular jumlasidandir. Ijtimoiy tarmoqlardagi ko'plab ma'lumotlarni o'zlashtirgan o'quvchilar diqqatini o'quv mashg'ulotiga jalb etish uchun fan o'qituvchilari yangicha texnologiyalarni o'zlashtirish borasida faol hamda ilg'or bo'lishlari shart. Fan o'qituvchilari ta'limdagi yangicha yondashuvlar borasidagi yangiliklardan boxabar bo'lib turishlari, o'quv mashg'ulotlarida an'anaviylikdan zamonaviylikka intilishlari zarur.

³³ *Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti “O'zbek adabiyoti ta'limi” kafedrasida o'qituvchisi

E-pochta: irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

Iqtibos uchun: Ishonxanova, I. 2023. “Scaffolding” usuli – o'quvchilarning mustaqil faoliyati asoslaridan biri sifatida”. *O'zbekiston: til va madaniyat*. 1 (4): 6-14..

³⁴ “Scaffolding” ingliz tilidan olingan bo'lib, qurilishlarda devor yoniga yog'och yoki metall dan qavat-qavat qilib ishlangan narvon, havoza degan ma'noni anglatadi.

Ta'lim sohasidagi samarali usullardan yana biri "Scaffolding" texnologiyasidir. Bu usulo'quvchilar birori yangi ma'lumot vatushunchani o'zlashtirishlariga qaratilgandir. Bunda o'qituvchi o'rganish jarayonini jonlantirish va vazifalarni bajarishda o'quvchilarga yordam beradi. O'qituvchi buni yangi ko'nikmalarni o'rganayotganda o'quvchilarning tajribasi va bilimlarini muntazam ravishda shakllantirish orqali amalga oshiradi.

Asosiy qism

"Scaffolding" metodi haqida yaxshiroq tushunish uchun yurishni o'rganayotgan bolaning holatini ko'z oldimizga keltiramiz. Bu hayotiy jarayonni, albatta, hammamiz ko'rganmiz. Birinchidan, ota-ona bolani ushlab turadi. Yurishga taqlid qila boshlaganda oyoqlari yerga zo'rg'a tegadi. Asta-sekinlik bilan ota-ona tomonidan bolaga o'z vaznini tobora ko'proq ko'tarishga ruxsat beriladi. Keyin, u ota-onasi kuzatib turgan paytda stol, stul, deraza tokchasi kabi narsalarni ushlab, o'zini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Nihoyat, bola mustaqil tarzda qadam tashlashga tayyor bo'ladi, lekin ota-onasi ehtiyotkorlik yuzasidan uning yonida muhofaza qilib turishadi. Ko'p o'tmay, bola o'zi yuradi va yuguradi. Ushbu misoldagi ota-onalar singari, yangi mavzuni tushuntirayotgan hamda yangi ma'lumotni o'rgatayotgan o'qituvchilar dastlab o'z o'quvchilarini to'liq nazoratga oladilar hamda qo'llab-quvvatlaydilar. Asta-sekin, o'quvchilar yangi topshiriqni bajarishga ko'nikma hamda layoqat hosil qilgunlariga qadar qo'llab-quvvatlanadi. Skaffoldingning asosiy ko'rsatkichi o'qituvchi tomonidan "so'nib boruvchi yordam"ning berilishi, ya'ni o'quvchi butunlay mustaqil bo'lib, o'quv mashg'uloti yakuniga qadar topshiriqni bajarish ko'nikmasini o'zlashtirishiga qarab o'qituvchi ko'magi darajasining sezilarli darajada pasayishi. Odatda, skaffolding usullari yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish, o'quvchilar topshiriqni bajarishlari uchun samarali usulni tanlash, o'quvchilar yangi ma'lumotlarni o'zlashtirayotganliklarini nazorat qilishga samarali yordam beradi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, skaffolding strategiyasi nafaqat o'rta umumta'lim maktabi tizimida, balki universitetda o'qitish tizimida ham foydalanish samarali bo'lgan usullardan biri hisoblanadi. Biroq bu metodni oliy ta'lim tizimida qo'llash fan o'qituvchisidan katta mahorat va bilimni talab etadi. Biz o'z maqolamizda ushbu metodni o'rta maktab tizimida qo'llash masalasiga to'xtalib o'tdik.

Skaffolding usulining bir qancha strategiyalarini Kolorado shtati pedagog olimasi Elizabeth Mulvahill tavsiya etadi. Biz ularni sanab o'tamiz hamda izohlaymiz:

1. Mini darslar tashkil etish. Bunda yangi tushunchalar bir-birining ustiga qurilgan bo'laklarga bo'linadi. Bir qator mini darslardan keyin o'quvchilarda asta-sekin yangi tushuncha hamda ma'lumotlarni chuqurroq tushunishga harakat qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

2. Aniq ko‘rsatmalardan foydalanish. O‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning eng yaxshi usullaridan biri bu tizimli, aniq ko‘rsatmalardan foydalanishdir. O‘qituvchi o‘quv mashg‘uloti davomida qo‘llashni rejalashtirgan vazifalari ketma-ketligini qat‘iy belgilab olishi zarur. Shundagina samarali natijaga erishiladi.

3. Modellashtirish yoki namoyish qilish uchun ovoz chiqarib o‘ylash. O‘rganishning eng yaxshi usullaridan biri bu o‘quvchilaringizga ular o‘rganadigan narsalarni misol qilib ko‘rsatishdir. Masalan, ilmiy tajribani namoyish qilish, shunda ular buni o‘zlari qilishdan oldin qanday amalga oshirilganligini ko‘rishlari mumkin. Namoyish paytida fikrlash jarayoni bosqichlarini og‘zaki ifoda etish o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni to‘liq bajarishlariga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

4. Tushunchalarni bir necha usulda tavsiflash. Yangi tushunchalarga bir necha tomondan yondashish orqali turli xil o‘rganish usullarini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Turli usullar haqida ma‘lumot berish hamda o‘quvchilar ularni sinab ko‘rishlari uchun ruxsat berish bilim oluvchilarning qiziqishlarini oshiradi. O‘rganishga qanchalik ko‘p usullar yordamida yondashilsa, o‘quvchilar uchun o‘quv mashg‘uloti shunchalik unumli bo‘ladi.

5. Qiyin vazifalarni mayda bosqichlarga bo‘lib bajarishni tashkil etish. Ba‘zan o‘quvchilar topshiriq uchun bajarishlari kerak bo‘lgan barcha qadamlarni eslab qolishlari qiyin. Shuning uchun o‘quvchilarga bajarishlari kerak bo‘lgan topshiriqlarni qadam-baqadam qismlarga bo‘lgan holda ro‘yxatini taqdim etish zarur bo‘ladi. O‘quvchilar vazifalarni navbati bilan bajarish orqali ma‘lumotlarni o‘zlashtirishlari oson kechadi.

6. Yangi ma‘lumotlarni o‘zlashtirishni sekinlashtirish. Ba‘zan o‘qituvchilar ko‘proq ma‘lumotni o‘zlashtirish maqsadida tezkor harakat qiladi. Ammo ular bu jarayonni sekinlashtirsa hamda o‘quvchilarga o‘zlashtirayotgan ma‘lumotlariga ishlov berish uchun ko‘proq vaqt ajratsa, haqiqatan ham o‘quvchilarga ko‘mak berilgan bo‘ladi. O‘quv mashg‘uloti jarayonining turli nuqtalarida to‘xtab, dars mavzusi qismlarga bo‘lib tashlansa, bu yaxshi samara beradi. Chunki mavzu yoki muammo boshqariladigan qismlarga ajratilsa hamda unga vaqt sarflansa, uni ancha chuqur o‘zlashtirish va qayta ishlash mumkin bo‘ladi.

7. Ko‘rgazmali qurollardan unumli foydalanish. Yangi mavzuni bayon etish jarayonida mashg‘ulot qiziqarli o‘tishi uchun darsga doir videoni ko‘rsatish, rangli tasvirlarni tarqatish yoki aniq ob‘ektni taqdim etish vazifasiga o‘qituvchi mas‘uliyat bilan yondashishi lozim. Misol uchun, agar surat asosida matn tuzish topshirig‘i berilganda har bir partada yoki har bir o‘quvchida alohida surat bo‘lishi kerak.

8. O‘quvchilar foydalanishlari uchun mavzuga oid murakkab so‘zlar lug‘ati tuzish va uni taqdim etish. Chunki o‘quvchilar o‘ziga xos akademik til bilan qurollangan bo‘lishlari shart, shunda qiyin so‘zlar izohini bilmaslik mavzuni o‘rganishga to‘sqinlik qilmasligi kerak.

9. O'tilgan mavzularni takrorlash. O'quvchilarga avval o'zlashtirilgan ma'lumotlar aks etgan surat, jadval yoki tarqatmalar berish kerak. Shu orqali o'tilgan mavzular takrorlanadi hamda yangi ma'lumotlarni qabul qilish uchun zamin yaratiladi.

10. O'quvchilarga suhbat va munozara uchun vaqt berish. Bolalarga yangi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ularni hamkorlik qilish yoki kichik guruhlariga bo'lish orqali ko'p vaqt berishni unutmazlik kerak. Ulardan tushunchalarni bir-birlariga o'z so'zlari bilan ifodalashlarini so'rash juda muhim. Shunda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash yoki yakka holda ishlash, fikrlash hamda munozaraga kirishish ko'nikmasini yaxshiroq o'zlashtiradi.

11. O'quvchilarga mashq qilish uchun vaqt berish. O'quv mashg'ulotida topshiriq berilgandan so'ng ular bilan mashq qilish uchun biroz vaqt ajratish maqsadga muvofiq bo'lardi. Masalan, bir nechta o'quvchi doskaga chiqib, topshiriqning biron qismini bajarib ko'rishi mumkin. Yoki mavzuga doir tushunchaning bir qismini qog'ozda aks ettirish vazifasini ham ayrim o'quvchilar zimmasiga yuklash ham samarali natija beradi. Bu xuddi spektakl oldidan qilingan tayyorgarlikka o'xshab ketadi.

12. Darslar davomida tushunishni tekshirib borish. O'quvchilarning darsga e'tiborini tez-tez tekshirib turish ham darsning zarur qismlaridan biridir. Oddiygina savol bilan qatnashchilarni qo'l ko'tarishini so'rash, berilgan jadvallar yoki matnlardagi bo'sh o'rinlarning to'ldirilganini ko'rib chiqish va hokazo harakatlarni bajargan o'qituvchi qaysi o'quvchiga yordam kerakligi, qaysi qatnashchi o'ziga berilgan topshiriqni oson bajarishi, qaysi bolaga turtki berish kerakligini tahlil qilib oladi.

13. Grafik organayzerlardan foydalanish. Grafik organayzer – bu o'qituvchilar darsdan oldin, dars davomida yoki undan keyin o'quvchilarning fikrlashlarini tartibga solishda yordam beradigan kuchli vizual o'rganish vositasi. Ular o'quvchilar uchun o'z fikrlarini tasniflash va yanada samaraliroq yetkazish uchun ajoyib usuldir. Oddiy Google qidiruvi sizni o'rgatayotgan materialingizga moslashtirishingiz mumkin bo'lgan barcha turdagi bosma grafik organayzerlar bilan bog'laydi.

14. O'quvchilarga taqdimot qilishga yordamlashish. Odatda, o'quvchilar taqdimotni boshlab olishda qiynalishadi. Shu holatda o'qituvchi taqdimotning boshlanish qismida o'quvchiga turtki berib yuborsa, taqdimot qiluvchilar bundan unumli foydalanib qoladilar. Bu ko'mak o'quvchilarga o'z fikrlarini to'plashga yordam beradi.

15. O'quvchilarni bir-biriga yordam berishga o'rgatish. Yangi tushunchani o'rganayotganda yoki qiyin parchani birgalikda o'qiyotganda, savolga javob berish uchun kuchli o'quvchini doskaga chiqarilsa ma'qul bo'ladi. Keyin, boshqa boladan o'z so'zlari bilan aytilgan narsani takrorlashni so'rash kerak. Tinglash va takrorlash orqali o'quvchilarning tushunchalarini mustahkamlashga erishish mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning sinfda hamkorlik qilishlariga yordam berishning qiziqarli usullaridan biri hisoblanadi.

16. Aniq maqsadlarni belgilab olish. O’quvchilar (ko’pchiligimiz kabi) ulardan nima kutilayotganini to’liq tushunsalar, yaxshi natijalarga erishadilar. Topshiriq maqsadini tasvirlab berish va ularga erishishi kutilayotgan ta’lim maqsadlariga aniq misollar keltirish lozim. Ularga aniq ko’rsatmalar berish va yuqori sifatli ishlarning namunalarini ko’rsatish kerak. Nihoyat, konsepsiyani muvaffaqiyatli o’zlashtirish uchun nima qilish kerakligini aniq bilishlari uchun ularga vazifaning bo’limlari taqdim etilsa, topshiriqni bajarish samaradorligi yuqori bo’ladi.

17. Mantiqan to’g’ri va ochiq savollarni berish. Bizda mavjud bo’lgan yana bir muhim vosita so’roqdir. Savollar berish o’quvchilarga o’z fikrlarini tartibga solish va o’z jarayonlarini batafsil ishlab chiqish imkonini beradi. Asosiysi, mazmunli savollar berilayotganiga ishonch hosil qilish zarur. Ularga oddiy “ha” yoki “yo’q” deb javob berilmaydigan bo’lishi shart. Bundan tashqari, o’qituvchi beradigan savollar mulohaza yuritishni talab qilishi kerak. Va nihoyat, savollar o’quvchilarni ular bajarayotgan topshiriqning eng muhim va e’tiborli jihatlariga yo’naltirishi kerak.

18. Texnologiyalardan unumli foydalanish. Texnologiya “Scaffolding” usulini qo’llash jarayonini soddalashtirishga yordam beradi. O’quvchilarga o’quv mashg’ulotidan oldin ko’rishlari uchun ma’ruza videolari ro’yxatini tuzish kerak bo’ladi. Bu ularga materialni oldindan ko’rish, o’zlashtirishni boshlash va sinfdagi topshiriq bilan shug’ullanishga tayyor bo’lish imkonini beradi.

Ta’limda “Scaffolding” usulini qo’llash nazariyasi birinchi marta 1976-yilda amerikalik psixologlar Djerom Bruner, Devid Vud va Geyl Rosslarning “The role of tutoring in problem solving” maqolasida shakllantirilgan. Aslida bu atama qurilish sohasiga tegishli bo’lib, bino ko’tarilayotgan vaqtda asosiy inshoot yoniga tayanch vositalar qo’yilishi, bino tiklanganda ular olib tashlanishini bildiradi. Ta’lim usuli sifatida ta’riflasak, o’qituvchi o’quvchiga biror vazifa bajarishda namuna ko’rsatadi, ko’maklashadi va sekin-asta chekina boshlaydi. Natijada o’quvchida o’sha vazifani mustaqil bajarish ko’nikmasi paydo bo’ladi.

Djerom Bruner, Devid Vud va Geyl Rosslar bu usulning 6 prinsipini keltirganlar:

1. Diqqatni jalb qilish. O’qituvchining birinchi vazifasi o’quvchini mavzuga qiziqtirish.

2. Harakatlar erkinligini chegaralash, bu o’rinda o’quvchi ortiqcha harakatlanmasligi uchun vazifani soddalashtirish.

3. Diqqatni maqsadga yo’naltirish. O’quvchi darsda boshqa narsalarga chalg’imasligi ta’minlanishi kerak.

4. Muhim jihatlarni ta’kidlash. O’quvchilar diqqatini topshiriqning muhim tomonlariga qaratish lozim.

5. O’quvchining kayfiyati, ruhiy holati buzilishiga yo’l qo’ymaslik. Shu bilan birga, o’qituvchi ta’sirini ham kamaytirish kerak.

6. Vazifa yechimini namoyish qilish. O’quvchi o’zidan qanday natija kutilayotganini bilishi kerak.

Artur Epli va Djudit Lendjerlar esa 1983-yilda “Scaffolding” usulining quyidagi mezonlarini ishlab chiqishdi:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik. O'quvchiga berilgan topshiriqning maqsadi aniq bo'lishi kerak.

2. Imkoniyatlarga moslik. Topshiriqning murakkabligi darajasi mustaqil bajarish uchun mos bo'lishi kerak.

3. Tizimlilik. Topshiriq o'quvchining fikrlash ketma-ketligi hisobga olingan holda tuzilishi kerak.

4. Hamkorlik. O'quvchi o'qituvchini nazoratchi sifatida emas, hamkor sifatida tan olishi kerak.

5. Internalizatsiya(o'zlashtirish va foydalanish). Ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan o'zlashtira boshlanar ekan, yordamchi “havoza”lar asta-sekin olib tashlanishi kerak.

Yuqoridagi usuldan o'quv mashg'ulotlarida unumli foydalanishimiz mumkin. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktabi dasturiga kiritilgan g'azal, qit'a, ruboiylarni o'rganishda “Scaffolding” usulini qo'llash mumkin. Agar biz yuqoridagi usuldan foydalansak, quyidagi tartibda ishlashimiz mumkin:

1. Ruboiy matnini o'qib berish.
2. Qofiyalanishi haqida ma'lumot berish.
3. Mazmunini so'zlab berish.
4. Tushunilishi qiyin so'zlarni izohlash.
5. Xulosa keltirish.

Aynan shu jarayonlarni o'quvchi bajara olishi uchun “Scaffolding” usuli qo'l keladi.

G'azallar izohi biroz murakkabroq, chunki g'azallarning vazni, ishlatilgan she'riy san'atlar haqida ham ma'lumot berilishi kerak. Yuqoridagi usul yordamida biz o'quvchilarning Alisher Navoiy asarlarini mustaqil holda izohlash ko'nikmasini o'zlashtirishiga erishishimiz mumkin.

Masalan, 10-sinf adabiyot darsligiga quyidagi mashhur g'azal kiritilgan:
Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki qatlim, yo hayotimg'a
Ayon ul zahri chashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ko'ngul uz charxi zolidin firibin yemakim, oxir
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa Navoiy tegmasun, deb ko'z
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

G'azalning birinchi baytini o'qituvchi tahlil qilib beradi:

"G'azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Birinchi baytning mazmuni: Men xohlagan odam meni o'zining suhbat uchun aziz inson hisoblamaydi. Men bilan gaplashmoqchi bo'lgan odamning suhbatiga esa men ishtiyoqmand emasman. "Arjumand" so'zi "aziz, hurmatli" ma'nosini bildiradi. Bu baytdan shunday xulosa chiqarish ham mumkin: Ma'naviy darajasi mendan yuqori bo'lgan inson bilan suhbatlashgim keladi, lekin mendan bilimi, ma'naviyati past bo'lgan insonning fikrlarini pisanand qilmayman."

Ikkinchi baytni ham o'qituvchi tahlil qilib beradi: "Bayt mazmuni: Mendan bahra(qoniqish, rohatlanish) kutgan odamdan men qanday bahra olishim mumkin? Men bahra olishni xohlagan odam esa, o'z ne'matidan meni bahramand qilmaydi. Baytda "bahra", "bahraye", "bahramand" so'zlari yordamida ishtiyoq san'ati qo'llangan." So'ngra o'qituvchi o'quvchidan baytga xulosa berishini so'raydi hamda misralarni xulosalashda, fikrlarini jamlashda bevosita o'quvchiga yordam ko'rsatadi.

Keyingi baytlar izoh va tahlillarida asta-sekinlik bilan o'quvchining rolini kuchaytirib borish kerak. Shunda g'azalning oxirgi baytlariga kelganda, o'quvchilar o'z fikrini erkin bildirib, misralarni izohlab, she'riy san'atlarni topa oladi. Misralardagi fikrlardan xulosalar chiqara oladigan darajaga keladi.

"Scaffolding" usulini qo'llashning quyidagi afzalliklarini aytib o'tishimiz mumkin:

- Ijobiy ta'lim muhitini rag'batlantiradi, chunki o'quvchilar qo'llab-quvvatlanayotganini his qiladilar. Ular savollar berishlari, sinfdoshlarini rag'batlantirishlari va o'z fikrlarini bildirishlari mumkin.

- Bolalar qiyinroq vazifalarni bajarishda o'zlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

- Yuqori faollikka olib keladi, bu esa o'rganuvchilarni mustaqil ravishda ko'proq o'rganishga undaydi.

- Tushunish va muammoni hal qilishni yaxshilaydi.

- O'qituvchilarga fasilitator roliga o'tishga imkon beradi, o'quvchilarni o'z ta'limini egallashga yo'naltiradi.

Shu bilan birga, yuqoridagi metod bilan bog'liq har bir o'qituvchi duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar mavjud. Misol uchun, dastlab "havoza"ni o'rnatish biroz vaqt talab qilishi mumkin. O'qituvchilar mavjud darslarni ko'rib chiqishlari, o'z darslarida "Scaffolding" usulini qo'llash zarur bo'lgan nuqtalarni aniqlashlari va o'rganishni kuchaytirishi mumkin bo'lgan iskala ishlarini o'ylab topishlari kerak.

O'qituvchilar birinchi marta havoza qurishga harakat qilganda, bu vaqt talab qilishi mumkin. Biroq, o'qitish uslubidagi boshqa ko'plab siljishlar singari, ishning asosiy qismi o'qituvchi birinchi marta o'z uslubini o'zgartirganda bajarilishi kerak. Faoliyatlar keyinchalik qayta ishlatilishi va rejalashtirish jarayonini tezlashtirishi mumkin.

Bu o'qituvchilar uchun muammo tug'dirishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini tanlashdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "Scaffolding" usuli tabaqalashtirilgan ta'limdan farq qiladi. Havoza qurish faoliyati juda xilma-xil ta'lim usublari bo'lgan o'quvchilarning kuchli tomonlariga javob bera olishi kerak. O'qituvchilar o'z sinflarining kuchli tomonlarini tushunish uchun vaqt ajratishlari va ko'plab o'rganish usublari o'rganuvchilarni jalb qiladigan tadbirlarni ishlab chiqishlari kerak. Shu bilan bir qatorda, ushbu tadbirlar o'quvchilarning kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlashga, kashf etishga muhim ko'mak berishi zarur. Bu vaqt va e'tibor talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

To'g'ri, bu usulni birinchi marta qo'llash o'qituvchi uchun qiyin bo'lishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar odatda o'z sinflarida o'quvchilarning imkoniyatlarini o'rganish uslublarini aniqlashni yaxshi o'zlashtirgan bo'ladilar. Ushbu o'qituvchilar ko'pincha o'z darslarini ushbu turli xil o'rganish uslublariga moslashtiradilar. Yangi o'qituvchilar uchun ularning sinflarida qaysi usul samarali ishlashini va hech qaysi o'quvchi chetda qolmasligi uchun o'zlarining "Scaffolding" usulini qo'llash faoliyatini qanday amalga oshirish kerakligini aniqlash qiyinroq bo'lishi mumkin.

Biroq, havoza qurishning eng qiyin jihatlaridan biri jarayonning boshlash va to'xtatish bosqichlarini aniqlash vazifasi bo'lishi mumkin. O'quv mashg'uloti qatnashchilarini yangi materiallar bilan tanishtirgandan so'ng, o'qituvchilar o'z o'quvchilariga materiallar ustida mustaqil ishlashlariga imkon berishlari kerak. Ba'zan topshiriqni bajarish jarayonining tugatish vaqtini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. Bu jarayonda nazoratni amalga oshirish ham muhim vositadir. Biroq, o'qituvchilar o'z o'quvchilarining qo'llarini ushlab turishni qachon to'xtatish kerakligini tushunishlari va o'quvchilar foydalanishi uchun havoza bilan ta'minlash o'rniga mustaqil ravishda oldinga siljishlariga imkon berishlari muhimdir. Biroq, agar o'qituvchilar to'rt bosqichli formatga rioya qilsalar, ular sinfda muvaffaqiyatli havozalarni qurishni amalga oshirish ehtimoli ko'proq.

"Havoza" qurishning to'rt bosqichi

Shimoliy Illinoys universiteti o'qituvchi rahbarligidagi faoliyatdan mustaqil o'rganishgacha bo'lgan to'rt bosqichli havoza qurish usulini tavsiya qiladi. Birinchi bosqichda o'qituvchi mavzu bilan tanishtiradi va shu mavzuga oid vazifani bajaradi. Bu davrda ular ilgari o'rganilgan materialni joriy qilinayotgan material bilan bog'laydilar va yangi o'rganilgan vazifani qanday bajarish mumkinligini ko'rsatadilar. Bu

o‘quvchilarga o‘qituvchining xatti-harakatlarini kuzatish va keyinchalik modellashtirish imkonini beradigan davrdir.

Shundan so‘ng, o‘qituvchi butun sinfni shunga o‘xshash mashg‘ulotni bajarishda ishtirok etishini so‘rashi mumkin. Bu vaqt ichida o‘qituvchi topshiriqni bajarishda keyin nima qilish kerakligi haqida sinfdan fikr-mulohazalarni oladi. Ba‘zi mashg‘ulotlar o‘qituvchiga ushbu tavsiyalar ro‘yxatini yozishga va ularning har birini sinab ko‘rishga yordam berishi mumkin. Ro‘yxatni tuzish mumkinmi yoki yo‘qmi, darsning uchinchi bosqichi shu kabi faoliyatni bajarish uchun guruhlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Guruhlarda talabalar birgalikda ishlashlari va faoliyat davomida bir-biriga yordam berish uchun tengdoshlarining ko‘rsatmalaridan foydalanishlari mumkin.

Darsning oxirgi bosqichi o‘qituvchilarga o‘quvchilarga xuddi shunday vazifani mustaqil ravishda bajarishga ruxsat berishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi havozaalarni butunlay olib tashlaydi va o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga imkon beradi. Oldingi uchta bosqichda olgan bilimlariga asoslanib, ular shunga o‘xshash muammoni mustaqil ravishda samaraliroq hal qilishlari mumkin. Albatta, to‘rt bosqichli jarayonda ham ba‘zi o‘quvchilar darsni to‘liq o‘zlashtira olmagan bo‘lishi mumkin. Ushbu to‘rtinchi bosqich o‘qituvchilar o‘quvchilar taraqqiyotini baholashlari mumkin bo‘lgan muhim nuqtadir, shuningdek, ularning mustaqil o‘zlashtirish jarayoni qanchalik samarali bo‘lganligini aniqlashlari mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, to‘rt bosqichli jarayon o‘qituvchilarga amal qilish uchun asos bo‘lsa-da, ular uni qattiq tuzilma sifatida emas, balki faqat bo‘sh ramka sifatida ishlatishlari kerak. Misol uchun, Shimoliy Illinoys universiteti tomonidan taqdim etilgan modelda o‘qituvchi birinchi bosqichda avvalo o‘qituvchi sifatida ishlaydi va biz ilgari muhokama qilgan ba‘zi kirish mashg‘ulotlarini, masalan, ong xaritalarini yaratishni o‘z zimmasiga olmaydi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining ko‘rsatmasining birinchi bosqichi qisqa bo‘lishi mumkin va ikkinchi bosqichga birlashtirilishi mumkin, o‘qituvchi tushunchalarni tanishtirayotganda va tegishli vazifalarni bajarayotganda, talabalar faoliyatni to‘ldiradilar. Keyin sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linib, mustaqil ishga o‘tishdan oldin topshiriqlarni bajarishlari mumkin. To‘rt bosqichli model o‘qituvchilar o‘rganishi mumkin bo‘lgan rejani taqdim etadi, lekin ular kerak bo‘lganda uni siqib chiqarishlari yoki mavzu juda murakkab bo‘lsa, ba‘zi bosqichlarni uzaytirishlari mumkin.

Xulosa

Sinfda birinchi marta amalga oshirishga urinayotganda “Scaffolding” usulini qo‘llash biroz vaqt talab qilishi mumkin va ayniqsa, yangi o‘qituvchilar uchun tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. Biroq, bu o‘quvchilarga yangi tushunchalarni o‘rganishga yordam beradigan

va yangi ma'lumotlarni osonroq saqlashga yordam beradigan kuchli vositadir. Eski g'oyalarni yangilari bilan bog'lash orqali o'qituvchilar ushbu yangi tushunchalarni o'rganish uchun asos yaratadilar. So'ngra, asta-sekin mustaqil amaliyotga o'tish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni ushbu yangi tushunchalarni mustaqil ravishda muvaffaqiyatli hal qilishga undashlari mumkin.

Adabiyotlar

- Olim, Sultonmurod, Sunnat Ahmedov va Rahmon Qo'chqorov. 2019. "Adabiyot". Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
- Sirojiddinov, Shuhrat, Dilnavoz Yusupova va Olim Davlatov. 2019. "Navoiyshunoslik". Darslik. Toshkent: Tamaddun.
- To'xliyev, Boqijon, Bahodir Karimov va Komila Usmonova. 2017. "Adabiyot". Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Ишмухамедов, Равшан, Абдуқаҳҳор Абдуқодиров ва Абдунаби Пардаев. 2010. "Тарбияда инновацион технологиялар". Тошкент: Истеъдод.
- Ишмухамедов, Равшан, Абдуқаҳҳор Абдуқодиров ва Абдунаби Пардаев. 2008. "Таълимда инновацион технологиялар". Тошкент: Истеъдод.
- Навоий асарлари учун қисқача луғат. 1993. Тузувчи Ботирбек Ҳасанов. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1988. "Ғаройиб ус-сиғар". МАТ. 20 жилдлик, 3-жилд. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 1990. "Бадоеъ ул-васат". МАТ. 20 жилдлик, 5-жилд. Тошкент: Фан.
- https://www.google.com/url?q=https://acamh.onlinelibrary.wiley.com/doi/pdf/10.1111/j.1469-7610.1976.tb00381.x&sa=U&ved=2ahUKEwjQvrTSxMOC AxWlgSoKHcNXChYQFnoECAkQAg&usg=AOvVaw1MHt3WvFyGgjhSSBo_dQ7z
- David Wood, Jerome S. Bruner, Gail Ross. The role of tutoring in problem solving.// The Journal of Child Psychology and Psychiatry. April 1976. – 89p.
- <https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=&ved=2ahUKEwj41t7bx8OCAxWSKRAIHQdBDRUQFnoECBYQAQ&url=https%3A%2F%2Fwww.weareteachers.com%2Fways-to-scaffold-learning%2F&usg=AOvVaw3qkSptrEflN6f70dREg8x5&opi=89978449>

“Scaffolding” method is one of the bases of independent activity of students

Iroda Ishonkhanova³⁵

Abstract

The educational system is constantly changing, developing and updating with the needs of the times. Experiments prove that students’ mastery level increases through the active use of modern technologies. This article provides information about one of the effective modern methods – Scaffolding method. Specific characteristics, strategies, principles, criteria, advantages of the “Scaffolding” method are listed, expressed and concluded. Each comment is based on the opinions expressed. In addition, the study of examples of Uzbek classic literature - Alisher Navoi’s ghazals and rubai’s – were discussed using this method. Ways of mastering these topics based on the “Scaffolding” method are given as an example. This method, which directly helps students to learn topics and new information independently, helps to make educational activities interesting and productive.

Key words: *“Scaffolding”, strategy, principle, criteria, modern technologies, explanation of words, graphic organizers.*

References

- Olim, Sultonmurod, Sunnat Ahmedov va Rahmon Qo’chqorov. 2019. “Adabiyot”. Darslik. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinf o’quvchilari uchun. Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti.
- Sirojiddinov, Shuhrat, Dilnavoz Yusupova va Olim Davlatov. 2019. “Navoiyshunoslik”. Darslik. Toshkent: Tamaddun.
- To’xliyev, Boqijon, Bahodir Karimov va Komila Usmonova. 2017. “Adabiyot”. Darslik. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinf o’quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Ишмухамедов, Равшан, Абдуқаҳҳор Абдуқодиров ва Абдунаби Пардаев. 2010. “Тарбияда инновацион технологиялар”. Тошкент: Истеъдод.
- Ишмухамедов, Равшан, Абдуқаҳҳор Абдуқодиров ва Абдунаби Пардаев. 2008. “Таълимда инновацион технологиялар”. Тошкент: Истеъдод.
- Навоий асарлари учун қисқача луғат. 1993. Тузувчи Ботирбек Ҳасанов. Тошкент: Фан.

³⁵ Ishonkhanova Iroda Abdvakhitovna - Teacher of the Department of Education of Uzbek literature, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Email: irodaishonxanova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1761-8408

For citation: Iroda Ishonkhanova 2023. “Scaffolding” method is one of the bases of independent activity of students”. *Uzbekistan: language and culture*. 1 (4): 6-14..

Навоий, Алишер. 1988. “Ғаройиб ус-сиғар”. МАТ. 20 жилдлик, 3-жилд. Тошкент: Фан.

Навоий, Алишер. 1990. “Бадоеъ ул-васат”. МАТ. 20 жилдлик, 5-жилд. Тошкент: Фан.

https://www.google.com/url?q=https://acamh.onlinelibrary.wiley.com/doi/pdf/10.1111/j.1469-7610.1976.tb00381.x&sa=U&ved=2ahUKEwjQvrTSxMOC AxWlgSoKHcNXChYQFnoECAkQAg&usg=AOvVaw1MHt3WvFyGgjhSSBo_dQ7z

David Wood, Jerome S. Bruner, Gail Ross. The role of tutoring in problem solving. // The Journal of Child Psychology and Psychiatry. April 1976. – 89p.

<https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=&ved=2ahUKEwj41t7bx8OCAxWSKRAIHQdBDRUQFnoECBYQAQ&url=https%3A%2F%2Fwww.weareteachers.com%2Fways-to-scaffold-learning%2F&usg=AOvVaw3qkSptrEfln6f70dREg8x5&opi=89978449>